



UDK: 130.122:330

Siroj RO'ZIMURODOV,
PhD, dotsent, Samarqand iqtisodiyot va servs instituti
E-mail:sirojrozimuradov@gmail.com

SamDCHTI professori, f.f.d R.Komilov taqrizi asosida

O'ZBEKISTONDA OILAVIY IQTISODIY TAFAKKUR MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOY- INSTITUTIONAL ASOSLARI

Аннотация

Mazkur maqolada O'zbekistonda oilaviy iqtisodiy tafakkur madaniyatini rivojlantirishning ijtimoiy-institutsional asoslari tahlil qilingan. Unda oila, mahalla, ta'lim muassasalari va davlat institutlarining iqtisodiy tafakkur madaniyatini shakllantirishdagi o'rni hamda yosh avlodni iqtisodiy jihatdan ongli, mas'uliyatli va tashabbuskor etib tarbiyalashdagi ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, oilaviy iqtisodiy tafakkurning jamiyat taraqqiyoti, iqtisodiy barqarorlik va ma'naviy qadriyatlar bilan uzviy bog'liqligi ochib berilgan.

Kalit so'zlar: oila, iqtisodiy tafakkur madaniyati, oilaviy iqtisodiy munosabatlar, ijtimoiy institutlar, mahalla, ta'lim tizimi, iqtisodiy ong, iqtisodiy madaniyat, yoshlar tarbiyasi, ijtimoiy mas'uliyat, ma'naviy qadriyatlar.

СОЦИАЛЬНО-ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ КУЛЬТУРЫ СЕМЕЙНОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация

В данной статье анализируются социально-институциональные основы развития культуры семейного экономического мышления в Узбекистане. В ней освещается роль семьи, махалли, образовательных учреждений и государственных институтов в формировании культуры экономического мышления, а также их значение в воспитании молодого поколения экономически сознательным, ответственным и инициативным. Также раскрыта неразрывная связь семейного экономического мышления с развитием общества, экономической стабильностью и духовными ценностями.

Ключевые слова: семья, культура экономического мышления, семейно-экономические отношения, социальные институты, махалля, система образования, экономическое сознание, экономическая культура, воспитание молодежи, социальная ответственность, духовные ценности.

SOCIO-INSTITUTIONAL FOUNDATIONS OF DEVELOPING THE CULTURE OF FAMILY ECONOMIC THINKING IN UZBEKISTAN

Annotation

This article analyzes the socio-institutional foundations for developing family economic thinking culture in Uzbekistan. It highlights the role of the family, mahalla, educational institutions, and state institutions in shaping economic thinking culture, as well as their significance in raising the younger generation as economically conscious, responsible, and proactive individuals. It also reveals the inseparable connection between family economic thinking and the development of society, economic stability, and spiritual values.

Keywords: family, economic thinking culture, family-economic relations, social institutions, mahalla, education system, economic consciousness, economic culture, youth upbringing, social responsibility, spiritual values.

Kirish. Jamiyatda iqtisodiy tafakkurni shakllantirish, eng avvalo, oila instituti bilan bevosita bog'liq holda namoyon bo'ladi. Oila – ijtimoiy institutlarning eng qadimgi va barqaror shakllaridan biri bo'lib, insoniyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Tarixiy jarayonlarning murakkabligi, ayniqsa, XX va XXI asrlarda yuz bergan tub ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar ham oilaning jamiyat hayotidagi o'rni yanada mustahkamladi. Bugungi kunda O'zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko'lamlı islohotlar sharoitida oilaning nafaqat ijtimoiy, balki iqtisodiy funksiyalari ham tubdan yangilanmoqda. Oila iqtisodiy tafakkurni shakllantirish, moliyaviy madaniyatni rivojlantirish va iqtisodiy qarorlar qabul qilish ko'nikmalarini avloddan-avlodga uzatishda muhim institut sifatida faoliyat yuritadi. Shu nuqtai nazardan, O'zbekistonda oilaviy iqtisodiy tafakkurni rivojlantirishning institutsional asoslarini o'rganish dolzarb ilmiy masala hisoblanadi. Mazkur jarayonda davlat siyosati, ta'lim tizimi, ijtimoiy institutlar hamda oilaning o'zaro

hamkorligi muhim ahamiyat kasb etadi. Biror bir xalq, millat yoki jamiyat yo'qki, u o'zining rivojlanish tarixida va taraqqiyot istiqbolini belgilashda oila va uning atrofidagi muammolarni, qadriyatlarini inobatga olmagan bo'lsa. Har qanday iqtisodiy va ma'naviy rivojlanishni oilaning manfaatlaridan ayro tasavvur qilish mumkin emas. Shuningdek, har bir inson uchun oila – bu umrning boshlanishi, barcha narsalarning muqaddimasidir. Qolaversa, har bir inson o'z baxti va saodatini eng avvalo oilasi bilan bog'laydi, ya'ni, o'z uyi, oilasida baxtli bo'lgan insongina o'zini to'laqonli Bahtiyor his etadi.

Adabiyotlar tahlili. Oilaning jamiyat hayotidagi rolini, ayniqsa, oiladagi farzandlar tafakkur madaniyati va tarbiyasini Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlashicha "Insonga insonparvarlik, yaxshi xulq, ta'lim-tarbiya va umuman, ijobiy xislatlarni o'rgatuvchi maktab bu - oiladir. Xalqimizda "qush uyasida ko'rganini qiladi", degan maqol bor. Tarbiya - oiladan boshlanadi, desak xato qilmaymiz" [1-72]deb ta'kidlab

o'tadilar. Oila va xotin-qizlarning iqtisodiy mustaqilligi tufayli XX asrga kelib ayolning oila va jamiyatda tutgan o'rni va maqomi keskin o'zgardi. Buning oqibatida erkak kishining oiladagi etakchilik roli, oilada resurslarni boshqarish, qarorlar qabul qilish va farzandlarni jamiyat hayotiga jalb etishdagi maqomi sezilarli darajada pastladi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlashicha "Keyingi yillarda biz aholi turmush darajasini yuksaltirish, bandlikni ta'minlash, kafolatlangan sifatli ta'lim, malakali tibbiy yordamni rivojlantirish, barcha uchun teng imkoniyatlar yaratish, oila, bolalar, ayollar, qariyalar va nogironligi bor shaxslarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash borasida kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirmoqdamiz" [2]. Shuningdek, ayol-onaning oilasi va bola tarbiyasi uchun bo'sh vaqtining kamayib borayotganligi, reproduktiv mas'uliyatning jamiyatda lavozimlar pog'onasida yuqoriroq o'rin egallash istagiga nisbatan pastlab borayotganligi salbiy oqibatlarga olib kelmoqda. Shu sababli sanoati rivojlangan mamlakatlarda tug'ilishlar sonining kamayib borayotganligi, oqibatda aholi sonining keskin pasayishi kuzatilmoqda. Afsuski, bunday holatlar O'zbekistonning shahar hududlarida ham kuzatilmoqda.

Demak, oilaning jamiyat oldidagi vazifalari deganda, uning avvalo oila a'zolarining muayyan ehtiyojlarini qondirish hamda shu orqali davlat va jamiyatning ehtiyoj va manfaatlariga xizmat qilish qobiliyati tushuniladi. Masalan, ota ishlab chikarish korxonasida ertadan kechgacha mehnat qilar ekan, bu bilan u nafaqat o'zining eb-ichish, dam olish, turli xaridlarni amalga oshirishga yo'naltirilgan ehtiyojini qondiradi, balki oila a'zolarini, birinchi navbatda farzandlari, uy bekasi bo'lsa, turmush o'rtog'ining ehtiyojlarini, qolaversa, u yoki bu korxonadagi rentabellikning oshishi, iqtisodiy ko'rsatkichlarning yuqori bo'lishiga, shu orqali o'z vatanida ushbu sohaning rivojlanishiga hissa qo'shadi.

Tahlil va natijalar. Aslida bu mehnat taqsimoti bilan uzviy bog'liq voqelik. Butun kishilik hayoti, insoniyat taraqqiyoti mehnat taqsimotini ustuvor qonunga aylanib, kishilararo munosabatlarga, ishlab chiqarish va shu jumladan, oilaviy munosabatlarga ham ta'sir etganini ko'rsatadi. Erkak va ayol o'rtasidagi differentsiya, mehnat taqsimoti kimlarningdir kashfiyoti emas, biologik va sosial rivojlanish, odamning o'zini asrash instinkti shuni taqozo etgan.

Xotin-qizlarning tadbirkorlik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash maqsadida uzoq muddat bola parvarishida bo'lgan, mushkul iqtisodiy ahvolga tushgan ayollarni mehnat bozorida talab etilayotgan kasblar bo'yicha qayta tayyorlash, o'qitish, ular uchun biznes markazlari tashkil etish, innovasion ishlanmalarda ishtirokini ta'minlash asosiy yo'nalishlardan biri bo'ldi. "Xalqimiz mentalitetining o'zagini tashkil qiladigan bag'rikenglik, olijanoblik, samimiyat va mehnatsevarlik kabi ko'pdan-ko'p ezgu fazilatlariga tayanayotganimizni ham alohida qayd etib o'tishim lozim. E'tiborli jihati, bunday g'oyalar va qarashlar yaqinda qabul qilingan yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda ham o'z aksini topib, mamlakatimizning ichki va tashqi siyosatiga oid ustuvor yo'nalishlarni belgilashda asos bo'lmoqda" [2]. Har kun bozorga chiqib, oziq-ovqat keltirish, uni tayyorlab dasturxon ustiga qo'yish o'sha subyektlarning vazifalaridir. Mavjud mablag'larni tejab sarflash, oilaviy jamg'armalar qilish oilani kutulmagan turmush mashaqqatlariga duch kelganida himoya qiladi.

Bugungi kunda oiladagi iqtisodiy madaniyatning amaliy funksiyasi insonning ishlab chiqarish jarayoniga bo'lgan ongli munosabati orqali namoyon bo'ladi. U nafaqat moddiy ne'matlar yaratish samaradorligini oshirishga, balki mehnatning ma'naviy-axloqiy mazmunini boyitishga ham xizmat qiladi. Zamonaviy ishlab chiqarish tizimida mehnat unumdorligini belgilovchi omillar nihoyatda murakkab va ko'p qirrali bo'lgani sababli iqtisodiy madaniyat o'zining turli

tarkibiy unsurlarini yagona maqsad sari safarbar etadi. Jumladan, fan va texnika taraqqiyoti, ilg'or texnologiyalar, mehnatni ilmiy asosda tashkil etish, ergonomika, texnik estetika va dizayn, ishlab chiqarish muhitining sanitariya-gigiyenik holatini takomillashtirish, sog'lom ma'naviy-ruhiy muhit yaratish, mehnat intizomini mustahkamlash, infratuzilmanni rivojlantirish, ishchilarning kasbiy va texnik salohiyatini oshirish hamda boshqaruv usullarini insonparvarlashtirish iqtisodiy madaniyatning amaliy ifodasi sifatida namoyon bo'ladi. Iqtisodiy tafakkur tarzi ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifatini yuksaltirishning muhim falsafiy omili hisoblanadi. Chunki mahsulot sifati faqat texnik mukammallik bilan emas, balki inson ehtiyojlari, estetik didi va ijtimoiy qadriyatlar bilan uyg'unlikda baholanadi. Shu ma'noda mahsulotning utilitar sifati uning amaliy foydaliligi bilan belgilanar ekan, estetik sifati insonning go'zallik haqidagi tasavvurlarini aks ettiradi. Mahsulotning qulayligi va komfortabelligi insonning biologik hamda psixofiziologik imkoniyatlariga moslashganlik darajasini ifodalasa, uning tovar ko'rinishi va dizayni jamiyatdagi madaniy-estetik mezonlarning mahsulidir. Bundan tashqari, mahsulot sifatining jahon standartlariga mosligi global sivilizatsiya talablariga integratsiyani anglatasa, uning makoniy, regional va milliy xususiyatlarga uyg'unligi har bir xalqning tarixiy-madaniy tajribasi va turmush tarzini o'zida mujassamlashtiradi. Mahsulotning zamonaviyligi esa fan-texnika taraqqiyotining darajasi bilan bir qatorda jamiyatning innovatsion tafakkurini ham ifodalaydi. Demak, iqtisodiy madaniyat ishlab chiqarish samaradorligini oshirish bilangina cheklanmay, inson, jamiyat va texnika o'rtasidagi uyg'un munosabatlarni shakllantiruvchi falsafiy-ijtimoiy hodisa sifatida namoyon bo'ladi.

Mahsulot sifatining u yoki bu turini shakllantirishda iqtisodiy madaniyatning muayyan sohasi samarali ishtirok etadi. Xususan, mahsulotning utilitar sifatiga ishlab chikarish madaniyatining texnik-texnologiya sohasi, xom-ashyo va ishchilarning malakaviy-texnik darajasi faol ta'sir etadi, ular tovarning inson ehtiyojlarini maksimal qondirish bilan bog'liq xususiyatlari, foydalilik darajasining yuqori bo'lishini ta'minlaydi. "Har qaysi davrning talabi, undagi ijtimoiy-iqtisodiy va g'oyaviy-siyosiy omillarning ta'siri ostida an'ana va qadriyatlar shakli rivojlanib, o'zgarib boradi. Masalan, til, din, ilm-fan, yozuv va matnlar tarix, xalq va millat haqidagi ma'lumotlar saqlanib, sayqallanib, asrlar mobaynida ajdodlardan avlodlarga o'tadi. Bu esa avlodlararo vorisiylikni ta'minlashga xizmat qiladi. Ijtimoiy muloqot ham avlodlararo vorisiylikni ta'minlashning muhim omilidir. Ayniqsa oilaning bu boradagi ahamiyati beqiyos" [3-25]. Jamiyatimizda qulay mehnat quroli, texnika ham ishchiga mehnat unumdorligini oshirish imkonini berish bilan birga ulkan zavq bag'ishlaydi. Umuman, qaerda qulaylik bo'lsa, o'sha erda lazzatlanish ham paydo bo'ladi. Voqelikni bilish, uning ichki mohiyatiga kirib borish va iqtisodiy tafakkur qonunlarni kashf qilish, ya'ni aqliy mehnatning qanchalik lazzat bag'ishlashini olimlar yaxshi bilishadi. Insonda mushaklar harakatidan bahra olish qobiliyati mavjud.

Insonning tashqi olam bilan aloqalari hamda ichki aloqalar uyg'unliga, ya'ni uning gomeostazis holati ham lazzat manbaidir. Bunday uyg'unlikka odam ko'pincha mehnat faoliyati orqali erishadi. Madaniyat, jumladan, iqtisodiy madaniyat lazzatlanish qoidalarini ishlab chiqadi. Mamlakatimizda sog'lom oilaning ma'naviy, ahloqiy, zamonaviy shakllantirish va bu borada uning ijtimoiy-iqtisodiy asoslari davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Shu jumladan, o'zbek xalqining hayot darajasi va sifatini yuksaltirishda oila undagi sog'lom turmush tarzi muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Xalqimiz juda qadim zamonlardan oq tarbiya maskani sifatida oilani muqaddas hisoblab kelgan. Azaldan yurtimizda oila

mustahkam, uning a'zolari tinch, farovon va sog'lom bo'lsagina, jamiyatda barqarorlik vujudga kelishini bilishgan. Deyarli hech bir mamlakatda yoshlarni oila muhitidan, Vatanidan ajratib, ulardan uzib olib alohida baholash kutilgan samaralarni bermagan. Ularning shakllari ham turli – tuman. Bir – birini ular to'laligicha takrorlamaydi. Lekin oila har qachon, hamma vaqt insonlarga xos tabiiy biologik, iqtisodiy mulkiy, huquqiy va ma'naviy birlikni shart qilib qo'yadigan bir butun yaxlit ijtimoiy hodisadir. Oila xalq yoki millat, elat davomiyligini ta'minlovchi, milliy qadriyatlarni asrab – avaylab saqlovchi, yangi avlodni tarbiyalashga qodir bo'lgan buyuk maskandir. Jamiyatning mustahkamligi, osoyishtaligi oiladagi tinchlik-xotirjamlikka, jamiyatdagi sog'lom turmush tarzi esa oila a'zolarining bir-birlariga bo'lgan samimiy munosabat, axloqiy tarbiyasiga bog'liq bo'lgan. Oilaning har bir shaxs hayotidagi rolini, ayniqsa, farzandlar tarbiyasini Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tushuntirib berar ekan "...bugungi tez o'zgarayotgan ziddiyatli davrda oilaviy masalalarni ilmiy asosda chuqur o'rganmasdan turib, ijtimoiy hayotdagi ko'plab murakkab savollarga javob topish qiyin" [4] deb ta'kidlab o'tadilar. Shu jihatdan xalqimiz orasida shakllangan bunday dunyoqarash va odob-axloq bugungi kunda ham inson ma'naviy qiyofasini ifoda etib kelmoqda. Yuksak ma'naviyatga ega ota-ona oilaning mohiyati, qadri, burch, mas'uliyat, oila vazifalari, oilada barkamol farzand tarbiyasi, oilani moddiy jihatdan ta'minlash, uning osoyishtaligini saqlash kabi vazifalarni anglab etadi va unga amal qiladi.

Farzandlarda sog'lom ijtimoiy munosabatlar oilada ota-ona, katta yoshdagi oila a'zolari ta'sirida shakllanadi. Oila qanchalik inoq, uyushgan va mustahkam bo'lsa, uning bola shaxsiga ta'siri ham shunchalik samarali bo'ladi. Bunday oila o'zining qadriyatlaridan tashqari, jamiyatning qadriyatlari, qonun-qoidalar va meyorlarini hurmat qiladi, bola yoshligidan jamiyatda yashashga o'rganadi va darajasi yuksalib borishi bilan birga iqtisodiy xulq-atvorning asosi – farovonlikka erishish yoki yuqori davlat yoki xususiy maqomga erishish yo'lidagi foyda va xarajatlarning nisbati to'g'risida iqtisodiy tafakkur madaniyati ega bo'ladi va o'z shaxsning fikrini bildiradi. Iqtisodiy va ijtimoiy manfaatlar bilan bir qatorda har bir insonning shaxsiy qobiliyatlari va ijtimoiy institutlar, urf-odatlar, etnik va mahalliy mentalitetning ta'sirini e'tiborga olgan holda ma'lum hayotiy imtiyozlarning nisbiy mavjudligini e'tiborga olish iqtisodiy xulq-atvorning individual va guruhli modellari shakllantirishda ishtirok etadi. "Aqli raso har qaysi

inson yaxshi anglaydiki, bu yorug'dunyoda hayot bor ekan, oila bor, oila bor ekan farzand deb atalmish bebaho ne'mat bor, farzand bor ekan, odamzod hamisha ezgu orzu va intilishlar bilan yashaydi. Bugungi kunda bizning qilayotgan barcha ishlarimiz farzandlarimizning baxtu saodati, ularning yorug'kelajagi uchun amalga oshirilmoqda. Lekin baxtu saodat faqat boylik, molu mulk bilan belgilanmaydi. Odobli, bilimdon va aqlli, mehnatsevar, imon-e'tiqodli farzand nafaqat ota-onaning, balki butun jamiyatning eng katta boyligidir" [5].

Biz bugun sog'lom va teran fikrli farzandlarni oilada tarbiyalayotgan ekanmiz, ularning ma'naviy olami boy bo'lishi, tarixiy merosimizni chuqur bilishi, o'zida mukammallikni aks ettirishiga erishishimiz dardkor. Zamonaviy bilim va tafakkurga ega bo'lib borayotgan farzandlarimizni har tomonlama kamol topib borishida oiladagi ma'naviy tarbiyaning etukligi ko'p jihatdan ota-onalarning axloq-odob masalalariga borib taqaladi.

Xulosa qilib aytganda, yoshlarning faol iqtisodiy xatti-harakatlari jamiyatning iqtisodiy hayotida tutgan o'rni va uning taraqqiyot jarayonidagi faol ishtirokini ifodalovchi muhim ijtimoiy-falsafiy hodisadir. Bunday xatti-harakatlar insonning iqtisodiy ong darajasi, mas'uliyat hissi, manfaatdorlik tamoyillari hamda jamiyat oldidagi ijtimoiy burchini anglash orqali namoyon bo'ladi. Shu bois iqtisodiy faoliyat nafaqat moddiy ehtiyojlarni qondirish vositasi, balki shaxsning o'zini namoyon etishi, ijtimoiy muhitga moslashuvi va jamiyat taraqqiyotiga ongli ta'sir ko'rsatishining muhim shakli sifatida ham qadrlanadi. Mazkur jarayon natijasida iqtisodiy faoliyatning samarasi faqat individual manfaat bilan cheklanib qolmay, balki jamiyat miqyosida iqtisodiy barqarorlik, ijtimoiy farovonlik va taraqqiyotning uzviy omiliga aylanadi. Chunki iqtisodiy tafakkur yuksak bo'lgan jamiyatda inson o'z mehnatini nafaqat shaxsiy daromad manbai, balki umumiy taraqqiyot va ijtimoiy mas'uliyatning ifodasi sifatida anglaydi. Aynan shu nuqta nazardan qaraganda, oilada iqtisodiy tafakkur madaniyatini shakllantirish jamiyat taraqqiyotining strategik asoslaridan biri hisoblanadi. Oila insonning dastlabki ijtimoiylashuv makoni sifatida iqtisodiy qadriyatlar, mehnatsevarlik, tejamkorlik, mas'uliyat va tashabbuskorlik kabi fazilatlarining shakllanishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Oilada qaror topgan iqtisodiy tafakkur madaniyati yosh avlodning iqtisodiy jihatdan bilimli, mustaqil fikrlovchi va ijtimoiy mas'uliyatni chuqur his etadigan shaxs bo'lib voyaga yetishiga zamin yaratadi.

ADABIYOTLAR

1. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. –Тошкент: O'zbekiston, 2021. – Б. 72
2. Mirziyoyev Sh.M. Hozirgi zamon va Yangi O'zbekiston. Toshkent. "O'zbekiston". 2024. – B-58.
3. Назаров Қ. Жаҳон фалсафаси қомуси. 1-китоб. –Т.: "Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти", 2023. 25-бет.
4. Мирзиёев Ш.М. Оила ва жамият устуни, ҳаётимизнинг файзи ва кўрки. // Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2 жилд -Т.: Ўзбекистон, 2018, 464-бет.
5. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. Toshkent, "Ma'naviyat", 2008, 55-56-betlar.
6. Тураев Б.О. Танланган асарлар - V. фалсафа тарихи:мақолалар тўплами – Т, «Voris-nashriyot», 2025, Б.10.
7. Мирзиёев Ш.М. Оила ва жамият устуни, ҳаётимизнинг файзи ва кўрки. // Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2 жилд -Т.: Ўзбекистон, 2018, 464-бет.